

**SHARTNOMA № 4**  
(elektr energiyasi yetkazib berish va undan foydalanish to'g'risida)

**Kitob tuman**

«24» yanvar 2022-yil

**Kitob tuman Elektr tarmoqlari korxonasi (Kitob TETK)**, keyingi o'rnlarda "Ta'minotchi" deb yuritiladi. O'zining nizomi asosida ish yurituvchi **B.Juraev** nomidan, bir tomondan va **Kitob davlat o'rmon xo'jaligi** nomidan, keyingi o'rnlarda "Iste'molchi" deb yuritiladi, **Sh.Adilov** ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### **I. SHARTNOMANING MOHIYATI**

- 1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ning buyurtmanomasiga muvofiq ulangan tarmoq orqali elektr energiyasi yetkazib berishni o'z zimmasiga oladi, "Iste'molchi" esa mazkur shartnomaning 1-ilovasida belgilangan quvvatdagi elektr energiyasini qabul qilib olish va ilova qilinadigan jadval asosida byudjetda ajratilgan mablag'lar hisobidan haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. Byudjet tashkilotining yil davomida rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari doirasida xizmat ko'rsatuvchi, xizmat oluvchilar tomonidan o'zaro kelishilgan holda shartnoma summasiga o'zgartirishlar kiritishga haqlidirlar.
- 1.3. **Foydalanadigan elektr energiyasintint yillik hajmi 44444 kVt.** (yanvar oyi uchun)ni tashkil qildi.

### **II.TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

#### **2.1. "Iste'molchi"ning huquqlari:**

- a) "Ta'minotchi"dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasiga yetkazib berishni;
- b) elektr tarmoqlarining balans bo'yicha tegishlilik chegarasida elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarini shartnoma va standartlarda belgilangan miqdorda saqlashni;
- d) elektr energiyasi iste'molining oylik shartnomaviy miqdorini choraklik miqdor doirasida joriy chorak mobaynida 2 marta (1- va 2oylarda ular tugagungacha 10 kundan kechikmay) qayta taqsimlanishini "Ta'minotchi"dan talab qilishga haqlidir.
- e) elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasida zarur sifatga muvofiq bo'limgan elektr energiyasi yetkazib berilganda "Iste'molchi" o'z xohishiga ko'ra muddatlar buzilgan yoki zarur sifatga muvofiq bo'limgan holda yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni va haqini to'lashni rad etishga)"Ta'minotchi"dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni, boy berilgan foydani qoplanishini talab qilishga haqlidir.

#### **2.2. "Iste'molchi"ning majburiyatları:**

- a) hisobga olish joyi elektr tarmoqlarning "Ta'minotchi" bilan balans mansubligi bo'yicha bo'linish chegarasiga o'tkazilsin (iste'molning hisobga olinishi bo'linish chegarasida amalga oshirilmagan vaziyatlarda);
- b) elektr tarmoqlari, asbob uskunalarining tegishli texnik holatini va xavfsizligini ta'minlash;
- d) elektr energiyasini iste'mol qilishning o'rnatilgan tartibiga rioya qilish hamda elektr energiyasidan foydalanishda yuzaga keladigan avariylar, yong'inlar, elektr energiyasini hisobga olish asboblaridagi nosozliklar haqida "Ta'minotchi"ga xabar berish;
- e) reaktiv energiya ishlab chiqaruvchi uskunalarining ish rejimiga rioya qilish;
- f) iste'mol qilinadigan elektr energiyasini hisobga olish asboblari va ulardag'i tamg'alarning butligi va saqlanishini ta'minlash;
- g) ishlatilgan elektr energiyasi uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish.

#### **2.3."Ta'minotchi"ning huquqlari:**

- a) "Iste'molchi"dan yetkazib beriladigan elektr energiyasi uchun oldindan tegishli haqni to'lashni va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uzil-kesil hisob-kitoblarni amalga oshirishni;

- b) shartomaga yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomaga muvofiq yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni asossiz rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni "Iste'molchi"dan talab qilishga haqlidir;
- d) uning vakili tegishli amal qilish muddati bilan shaxsiy guvohnomasi mavjud bo'lganda elektr hisoblagichlarni ko'rib tekshiradi;
- e) ma'naviy jihatdan eskirgan elektr energiyasini induksion hisobga olish priborlarini reja asosida Davlat tekshiruvidan o'tkazmaydi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-noyabrdagi 512-sonli Qaroriga muvofiq ularni zamonaviy elektron hisoblagichlarga almashtirilishini talab qiladi.

#### **2.4.Ta'minotchining majburiyatlar:**

- a) Qonun hujjatlariga muvofiq ushbu shartnoma majburiyatlarini o'z muddatda bajarilishini ta'minlash;
- b) "Iste'molchi"ga shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi elektr energiyasinn elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasiga etkazib berish;
- d) elektr tarmoqlarining balans bo'yicha tegishlilik chegarasida elektr energiyasining sifat ko'rsatgichlarini shartnoma va standartlarda belgilangan mikdorda saqlash;
- e) elektr energiyasining "Iste'molchi"ga uzlusiz yetkazib berilishini ta'minlash;
- f) elektr tarmoqlarini rejali ta'mirlashda elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lган uzilishlar to'g'risida "Iste'molchi"ni kamida 3 sutka oldin ogohlantirish;
- g) elektr energiyasidan asossiz uzishga yo'l qo'ymaslik va "Iste'molchi"ga elektr energiyasi berishning rejadan tashqari to'xtatilishi sabablarini xabar qilish;
- h) "Iste'molchi"ga elektr hisoblagichlarining amaldagi normativ-hujjatlar talablariga muvofiq almashtirish muddatlarini xabar qilish;
- i) joriy etiladigan cheklashlar haqida cheklashning joriy etilish xajmi va vaqtini ko'rsatgan holda 1 kun oldin xabar qilish;
- j) energiya tarifi o'zgarganda o'rnatilgan tartibda "Iste'molchi"ga bildirish.

### **III. ELEKTR ENERGIYASINI NARXI VA XISOB-KITOBLAR TARTIBI**

#### **3.1. Shartnomaning tuzilgan vaqtdagi umumiyo bahosi 19 999 800 so'm**

**(O'n to'qqiz million to'qqiz yuz to'qson to'qqiz ming sakkiz yuz ) so'mni tashkil etadi.**

| 2022-yil<br>jami | Yanvar   | 1-chorak |   |   | 2-chorak |   |   | 3-chorak |   |   | 4-chorak |   |  |
|------------------|----------|----------|---|---|----------|---|---|----------|---|---|----------|---|--|
|                  |          | F        | M | A | M        | I | I | A        | S | O | N        | D |  |
|                  |          | e        | a | p | a        | y | y | v        | e | k | o        | e |  |
|                  |          | v        | r | r | y        | u | u | g        | n | t | y        | k |  |
|                  |          | r        | t | e | n        | l | u | t        | a | a | a        | a |  |
|                  |          | a        |   | l |          |   |   | s        | a | b | b        | b |  |
|                  |          | l        |   |   |          |   |   | t        | b | r | r        | r |  |
| 19999800         | 19999800 | -        | - | - | -        | - | - | -        | - | - | -        | - |  |

3.2. Elektr energiyasi tarifi bir stavkali, ikki stavkali, tabaqlashtirilgan stavkada belgilanadi. *Shartnoma bo'yicha yetkazib beriladigan elektr energiyasining tariflari shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Shartnoma tuzilgan davrda 1 kilovatt elektr energiya tarif narxi 450 so'm 00 tiyinni tashkil etadi.*

3.3. Navbatdagi oy uchun yetkazib berish nazarda tutilgan resurslar hajmining **oldindan 100 foiz** miqdorida oyning 20-sanasigacha to'lanadi.

3.4. Yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun to'lov pul o'tkazish yo'li bilan hisob-kitob qilinadi.

3.5. "Istemolchi" har oyda bo'linish chegaralarida o'rnatilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini yozib oladi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida o'chov transformatorlari koeffitsientlarini hisobga olgan holda iste'mol miqdori va foydalilanilgan elektr energiyasi uchun

to'lov summasi aniqlanadi.

Beglangan shakldagi hisobot "Ta'minotchi"ga oyning 25-sanasigacha bo'lgan muddatda yuboriladi.

3.6. Hisob-kitob elektr hisoblagichi bo'linish chegarasida o'rnatilmagan taqdirda elektr tarmog'ining balans bo'yicha tegishlilik chegarasidan elektr hisoblagich o'rnatilgan joygacha elektr energiyasi yo'qotilishi miqdori "Iste'molchi" bilan birgalikda hisobkitob yo'li bilan aniqlanadi va to'lov uchun "Iste'molchi"ga berilgan foydali elektr energiyasi bilan jamlanadi.

3.7. Taqdim etilgan belgilangan shakldagi hisobotga asosan "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga hisob-faktura yozib beradi.

3.8. Uzil-kesil hisob-kitob ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilmagan taqdirda "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga elektr energiya berishni to'xtatadi. Bir vaqtning o'zida, "Ta'minotchi" elektr energiyasi yetkazib berish dalolatnomasi asosida amalga oshirilgan to'lovlar summasini chiqarib tashlagan holda xizmat ko'rsatuvchi bank orqali hisobot oyida yetkazib berilgan elektr energiyasi summasiga aksept bilan to'lov talabnomasi beradi.

#### **IV. ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH VA UNI QABUL QILIB OLİSH TARTIBI**

4.1. Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar shartnoma shartlari va qonun hujjatlari talablariga muvofiq tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Elektr energiyasini yetkazib berish shartnomada yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomada ko'rsatilgan muddatlar va hajmlarda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi "Ta'minotchi" buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarin yuritadi.

4.3. "Iste'molchi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoki undagi elektr energiyasini yetkazib berish miqdori va sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqida "Ta'minotchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan joriy oy tamom bo'lishigacha kamida 10 kun oldin xabardor qiladi.

#### **V. ELEKTR ENERGIYASI BERISHNI TO'XTATISH VA UZIB QO'YISH TARTIBI**

5.1 Elektr energiyasi berishdagi uzilishlarga, elektr energiyasini berishni to'xtatish yoki cheklashga tomonlar kelishuviga muvofiq yo'l qo'yiladi.

5.2. "Iste'molchi" bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmsadan, biroq unga darhol xabar bergen holda elektr energiyasi berishni vaqtincha uzib qo'yish, to'xtatish yoki cheklashga "Ta'minotchi" tizimida avariyaning oldini olish yoki uni tugatish uchun kechiktirib bo'lmaydigan choralarни ko'rish zarur bo'lgan hollarda yo'l qo'yiladi.

#### **VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Elektr energiyasi yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlar bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan elektr energiyasi qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi "Ta'minotchi"ni shartnomaning zarur darajada bajarishidan va elektr energiyasi yetkazib berish kechiktirilganligi yoki to'liq yetkazib berilmaganligi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

6.2. Yetkazib berilgan elektr energiyasi haqini o'z vaqtida to'lamagani uchun "Iste'molchi" "Ta'minotchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi miqdorda penya to'laydi.

6.3. "Iste'molchi"ning taklifiga ko'ra mo'ljallanayotgan o'zgartirishlarga 10 kundan kech bulmagan muddatda kiritilgan elektr energiyasining shartnomadagi xajmlarining o'zgartirilishi

elektr energiyasini kam olish yoki ortiqcha olish deb hisoblanmaydi.

6.4. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik va boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

## VII. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar, qoidaga ko'ra ularni sudgacha hal etish yuzasidan tegishli choralarini ko'radir.

7.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita Iqtisodiy sudga murojaat qilishga ham haqlidir.

7.3. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

## VIII. FORS-MAJOR HOLATLARI

8.1. Tomonlardan biri shartnomani yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar) tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligini isbotlasa, javobgar bulmaydi.

## IX. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

9.1. Shartnoma ikki tomonlama imzolangan kundan so'ng G'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tgandan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil "31" dekabrgacha amal qiladi.

9.2. Mazkur shartnomaga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) tomonlar imzolagan paytdan keyin bajarilishi kerak.

9.3. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

9.4. Taraflar o'rtafigi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan taqdirda to'xtatiladi.

## X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

10.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, teng huquqiy kuchga ega.

## XI. TOMONLARNING REKVIZITLARI.

|  |   |
|--|---|
| «Ta'minotchi»<br>Kitob tuman Elektr<br>tarmoqlari korxonasi<br>(Kitob TETK) Manzili:<br>Kitob tuman. Buyuk.Ipak<br>yo'li ko'chasi tel\faks:<br>775-48-44 x\r:<br>22636000600177786352<br>bank nomi: O'zsanoat qurilish bank<br>MFO: 00854<br>INN: 200 666 494<br>OKONX: 11170<br>Raxbar: | «Iste'molchi»<br>Kitob davlat o'rmon<br>xo'jaligi manzili: Kitob<br>tumani Buyuk ipak yo'li<br>ko'chasi 2-uy tel\faks:<br><b>54-25-559</b><br>sh.x.r: 400121860102327042203142001<br>INN: 200694065<br>OKONX: 31100<br>O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi<br>G'aznachiligi<br>x/r: 23402000300100001010<br>bank nomi: Markaziy bank Toshkent<br>BBXKK M-MFO: 00014<br>STIR: 201 122 919<br>Direktor: <br> B.Juraev |
|--|---|



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**

**1. Loyihaning turi.**

Shartnoma

**2. Loyihaning nomi.**

Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi hamda Kitob tuman Elektr tarmoqlari korxonasi (Kitob tuman TETK) o‘rtasidagi 19 999 800 (o‘n to‘qqiz million to‘qqiz yuz to‘qson to‘qqiz ming sakkiz yuz) so‘mlik elektr energiyasini yetkazib berish va undan foydalanish to‘g‘risida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot.**

Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga yuridik xulosa olish uchun 5-yanvar 2022-yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti**



**N. Manzilov**

5-yanvar 2022-yil